JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 5 - mart 53-3-53-Q/24 Forish tuman hokimligi

Tumandagi transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, transport vositalarining 2024-yilgi texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hududidagi barcha yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan yengil va yuk avtotransportlar, jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan yuk tashuvchi avtotransport vositalari va ularga tirkamalar majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 1-ilovaga muvofiq, transport vositalari texnik ko‘rigini o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga asosan jismoniy shaxslar shartnoma asosida jalb etilgan xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalarida hamda yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan tadbirkorlik subyektlarida M1 toifadagi transport vositalari egalari o‘z transport vositasining texnik holati va uskunalari muvofiqligini baholash uchun belgilangan yig‘im to‘lovini amalga oshirgandan so‘ng, o‘z tanloviga ko‘ra texnik ko‘rikdan o‘tkazishi belgilansin.

4. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan

o‘tkazilsin:

a) yuk avtomobillari, avtobuslar, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularga tirkamalar − bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganligiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) − ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganligiga olti yildan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari, shuningdek ishlab chiqarilgan vaqti aniqlanmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) − bir yilda bir marta;

g) tirkamalar ko‘rikka transport vositasi − shatakchi uchun belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

d) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida;

e) ular ishlab chiqarilgan yildan qat’i nazar, DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan (qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan) kundan boshlab bir yil o‘tgach (mazkur bandning ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno).

5. Mazkur qarorning 4-bandi ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1-mart − 30-iyunda;

ikkinchi marta – 1-sentyabr − 31-oktyabr kunlarida o‘tkazilishi inobatga olinsin.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar – 31-dekabr kunlarida o‘tkaziladi;

6. Yuridik shaxslarning transport vositalarini texnik ko‘rigi transport vositalari ro‘yxatdan o‘tkazilgan (vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazilgan) joyida:

zarur shart-sharoitlarga (texnik diagnostika uskunalariga, ko‘tarish moslamalariga yoki qarab chiqish uchun chuqurchalarga, nazorat-o‘lchash asboblariga, asfalt yoki beton qoplangan bir tekis gorizontal maydonchaga) va

malakali mutaxassislarga ega bo‘lgan tashkilotlarda;

texnika xizmati ko‘rsatish stansiyalarida;

DYHXXning diagnostika stansiyalarida;

DYHXX organlari tomonidan o‘rnatilgan texnik nazorat postlarida o‘tkazilishi, texnik ko‘rikdan o‘tkazish joylari DYHXXning hududiy bo‘linmalari tomonidan belgilanishi inobatga olinsin.

7. Transport vositalari texnik ko‘rigini o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasiga
(V. Xusanov):

transport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalari va qoidalariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni tashkil etish;

transport vositalarining texnik holati va uskunalari yo‘l harakati xavfsizligi texnik reglamentlari yoki standartlari, qoidalari, normalariga muvofiqligini baholash;

transport vositalari sonini, ularning holatini, amalda mavjudligini, tegishliligini va boshqa ro‘yxatdan o‘tkazish ma’lumotlarni aniqlashtirish vazifasi yuklatilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli Transport vositalarini majburiy texnik ko’rikdan o’tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida qarori 3-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy bo‘linmalari transport vositalari ko‘rsatib o‘tilgan idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Transport vositalari DYHXXning hududiy organi tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun, shuningdek birinchi (oldingi) texnik ko‘rikda nosoz deb topilgan transport vositalari takroriy texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan miqdorlarda yig‘im undirilsin va mahalliy byudjetga o‘tkazilsin.

10. Tuman Ichki ishlar bo‘limi ommaviy axborot vositalarida transport vositalarining barcha egalariga, avtomobillarga texnika xizmati ko‘rsatuvchi

tashkilotlarga majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini yetkazishga qaratilgan keng tushuntirish ishlari o‘tkazilishini tashkil etsin.

11. Mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning www.forish.jizzax.uz − rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

12. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 20-yanvardagi 20-3-53-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov zimmasiga, ijrosini tashkil etish tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Q.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

14. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **I.Matiyev**

Forish tuman hokimining
2024-yil 5-martdagi
53-3-53-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida joylashgan karxona, tashkilot, idora, xo‘jalik, kichik va hususiy korxonalarga tegishli avtotransport vositalarini

2024 yilgi davlat texnika ko‘rigidan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Karxona, tashkilot, idora, xo‘jalik, kichik va xususiy korxonalar nomi	Ko`rikdan o`tish kuni	Ko`rikdan o`tish joyi
1	Tuman hokimligi	1 mart	YXXG xovlisi
2	Tuman DSI	5 mart	YXXG xovlisi
3	Tuman Qurilish va uy-joy kommunal ho`jaligi bo`limi	6 mart	YXXG xovlisi
4	Tuman Elektr ta`minoti korxonasi	15 mart	Tuman ETK garaji
5	Yangiqishloq Pochtasi	19 mart	YXXGxovlisi
6	Tuman Tibbiyot birlashmasi	29 mart	TTBxovlisi
7	Forish tumani “ Yo`llardan foydalanish” UK	4 aprel	TumanYXT ва FPK garaji
8	"Forishtumangaz" gaz ta`minoti filiali	8 aprel	«Forishtumangaz» garaji
9	"Nurota" Davlat qo`riqxonasi	9 aprel	YXXG xovlisi
10	Obodonlashtirish boshqarmasi	10 aprel	YXXG xovlisi
11	“Kadastr agentligi” Forish tuman filiali	11 aprel	YXXG xovlisi
12	O`rmon xo`jaligi bo`limi	12 -30 aprel	YXXG xovlisi
13	Telekommunikatsiya bo`limi	15 aprel	YXXG xovlisi
14	Agroinspeksiya bo`limi	16 aprel	YXXG xovlisi
15	Tuman Moliya bo`limi	17 aprel	YXXG xovlisi
16	Tuman Kadastrlar palatasi	18 aprel	YXXG xovlisi
17	Xalq banki Forish tuman filiali	19 aprel	YXXG xovlisi
18	Tuman Maktabgacha va maktab ta`lim bo`limi	23 aprel	YXXG xovlisi
19	Tuman mahallalar uyushmasi bo`limi	24 aprel	YXXG xovlisi
20	Tuman Bandlikka ko`maklashish markazi	25 aprel	YXXG xovlisi
21	ATB Agrobank tuman filiali	29 aprel	YXXG xovlisi
22	Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli transport vositasi	1-yanvardan 31-dekabrgacha	YXXG xovlisi

Eslatma: Korxona, tashkilot rahbarlari (yuridik shaxs) texnik ko‘rik boshlanishidan 10 kun oldin tuman YHXGga yuridik shaxsning rahbari, bosh hisobchi (bosh hisobchi funksiyasini bajaruvchi shaxs) tomonidan imzolangan, yuridik shaxsning muhri bilan

tasdiqlangan (tadbirkorlik subyektlaridan muhr bilan tasdiqlash talab qilinmaydi) texnik ko‘rik dalolatnomasining bir nusxasi;

texnik ko‘rikdan o‘tkazganlik uchun yig‘imning belgilangan summasi to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat (to‘lov topshirig‘i, kvitansiya);

mukammal ta’mirlashda, xizmat safarida bo‘lgan, ijaraga berilgan yoki sotishga qo‘yilgan transport vositalari sonini tasdiqlovchi ma’lumotlar;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalariga o‘rnatilgan gaz ballonlarining amaldagi davlat standartlariga mosligi haqidagi sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikati nusxasi;

“Sanoatgeokontexnazorat” davlat inspektsiyasining gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish huquqini beruvchi ruxsatnomasi mavjud bo‘lgan tashkilot tomonidan gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarining gaz ballonlari sinovdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi dalolatnoma nusxasi;

haydovchilar malaka oshirgani to‘g‘risida sertifikatining (sertifikatlari) nusxasini taqdim etishlari lozim.

Forish tuman hokimining
2024-yil 5-martdagi
53-3-53-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Trasport vositalarini yillik Davlat texnik ko‘rigidan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiya

T A R K I B I

T.Muqimov– tuman IIB YXX guruhi katta inspektori, kapitan, komissiya raisi

B.Xusanov – tuman mudofaa ishlar bo‘lim boshlig‘i, komissiya raisi o‘rinbosari

A ’ z o l a r i:

Q.Xidirov – Ekologiya, atrof muhitni muxofaza qilish va iqlim o`zgarishi inspeksiyasi boshlig‘i

A.Xoliqulov – "O‘zbekinvest" sug‘urta kompaniyasi AJ menedjeri

M.Nasimov – AT "Xalq banki" tuman bo‘limi boshqaruvchisi

A.Abduqodirov - jamoatchi yordamchi (nafaqadagi)